



Taqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | CONFÉRENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA


# YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

DAVRIYLIGI: 2018-2023

## INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DUNYODA BIRINCHI KASHF  
ETILGAN LOKOMOTIV POYEZD



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



IYUL  
№54

OZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLIV TAJIM MUASSASALARI PROFESSOR-QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IOTTIDORLU TALABALAR

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
9-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-9**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-9**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 54-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 20 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажида Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Мехри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ**

<b>1. Muxammedova Dilafruz Ulug'bek qizi</b> KORXONANING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI .....	7
<b>2. Yuldashev Elmurod Turayevich</b> QO'SHILGAN QIYMATNI SOLIQQA TORTISHNING XORIJ TAJRIBASI.....	9
<b>3. Ibrohimova Shoira O'ktamovna</b> ZAMONAVIY MENEJMENT YONDASHUVLARI ASOSIDA XALQ TA'LIMI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....	12
<b>4. Эрметова Икбол</b> ТИББИЙ ХИЗМАТЛАР БОЗОРИНИ РИВОЖЛANIШИНИ ТАШКИЛИЙ-ХУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ .....	14
<b>5. Эрметова Икбол</b> ТИББИЙ ТУРИЗМНИНГ МАЗМУН МОҲИЯТИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСА- ЛАЛАРИ .....	17



## ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

### KORXONANING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI

Muxammedova Dilafroz Ulug'bek qizi,  
“Buxoro hududiy elektr tarmoqlari  
korxonasi” AJ hisobchisi  
Telefon: +998978510202  
muxammedova.94@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Hozirgi kunda har qanday korxona o'z oldiga samaradorligini oshirishni maqsad qilib qoyadi. Ushbu tezisda samaradorlik tushunchasi hamda uni hisoblash usullari ko'rib chiqiladi.

**KALIT SO'ZLAR:** Samaradorlik, mezon, ko'rsatkichlar, rentabellik, resurslar, foyda, zarar, xarajat, real, nisbiy.

Har bir korxonaning maqsadi minimal xarajat qilish hisobiga maksimal foyda olish hisoblanadi. Mahsulot tannarxini minimallashtirish bozordagi raqobat keltirib chiqaradi. Bir birlik mahsulot yoki xizmatga ketgan xarajatlar hamda raqobat ta'sirida mahsulot yoki xizmatning bozor narxi shakllanadi.

Korxonaning iqtisodiy samaradorligini bir qancha yo'llar bilan baholash mumkin:

- Resursli usul: bunda ishlatilgan resurslarning maksimal ko'rsatkichlari ishlab chiqarilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan solishtiriladi. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqaruvchanlik kategoriyasida ko'rib chiqiladi. Agar korxonada bir turdag'i resurslarni o'lchaydigan tizim bo'lmasa, ushbu usulni qo'llash maqsadiga muvofiq bo'lmaydi.

- Sof pul oqimi usul: ushbu usul keng miqyosdagi omillarni hisobga olishga yordam beradi. Korxona sof pul oqimi uning sof daromadi hamda amortizatsiya yig'indisidan kapital qo'yilmalarining ayirmasiga teng bo'ladi. Bu ko'rsatkichga aylanma kapitalning hamda uzoq muddatli kreditor majburiyatlarning o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi.

- Zamonaviy usul: ushbu baholash usuli korxonaning barcha biznes-jarayonlari hamda ularni bajarish uchun qilinadigan xarajatlar orqali olinadigan daromadlar har xilligiga yo'naltiriladi.

Korxona iqtisodiy samaradorligini baholash uning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rGANIB chiqishni bildiradi. Bahoning obyektivlik darajasi ushbu korxonaga ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, oqilona investitsion qo'yilmalar kiritilishiga asos bo'ladi. Bu esa korxona imidji va obro'yini shakllantiruvchi tashkilot menejmentining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy samaradorlikni hisoblashda mezonlar va ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur. Mezon – hisoblash uchun aniqlangan xususiyat va belgilardir. Ko'rsatkichlar – iqtisodiy samaradorlik mezonlarining miqdoriy nisbatdagi ko'rinishidir. Korxona mezonlari qay darajada aniq va to'g'ri o'rnatilgan bo'lsa, uning iqtisodiy faoliyati tahlili shu darajada foydaliroq bo'ladi.

Rentabellik bu korxona iqtisodiy faoliyati universal ko'rsatkichi bo'lib, faoliyat turiga qarab uni boshqa kerakli ko'rsatkichlar bilan to'ldirib boorish mumkin. Tahlil samaradorlikni obyektiv ko'rsatishi uchun u chuqurlashtirilgan hamda iqtisodiyotning barcha tomonlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ko'rsatkichlar tizimi tuzilganidan keyin, ularning qaysi birini chetlatish masalasi ko'rib chiqiladi. Bunda real hamda nisbiy ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Real ko'rsatkichlar ma'lum bir davrda daromadlarning barcha o'zgarishlarini (iqtisodiy (sotuvdan), sof yoki muhosaba) ko'rsatishga imkon yaratib beradi. Lekin ushbu ko'rsatkichdan foydalanishda bitta kamchilik mavjud – bunda inflyatsiya hisobga olinmaydi.

Nisbiy ko'rsatkichlar bank shartlari ta'siriga uchramasligi hisobiga, undan foydalanish ma'qulroqdir. Bundan tashqari, ko'rsatkichlar bilan birgalikda, o'rganilayotgan subyekt maqsadi,



tarmoqda o'ziga xosligi hamda boshqa sabablarga ko'ra uni baholash usuli tanlanadi. Korxonaning iqtisodiy samaradorligini aniqlovchi usulni to'g'ri tanlash uchun, samara ko'rsatkichlari bilan yaqindan tanishib chiqish kerak bo'ladi.

Yalpi daromad - bu korxona asosiy faoliyati natijasida olingan mablag'lar miqdori. Bu korxona iqtisodiyoti, menejmenti va marketingi sohasidagi faoliyatining umumiy natijasini aks ettiruvchi yakuniy moliyaviy ko'rsatkichdir.

Xarajatlarni qoplash umumiylashtiruvchi ko'rsatkich bo'lib, u sof mahsulot hajmining ishchi kuchi hamda xarajatlarga nisbatini bildiradi:

$$XQ = YaD / MX$$

Bu yerda YaD – yalpi daromad, MX – mehnat xarajatlari.

Foyda yalpi daromadning realizatsiya qilingan qismi deb tushuniladi. Korxonada foydaning turli ko'rinishlari farqlanadi. Iqtisodiy foyda hamda muhosaba foydasi – bu har xil tushuncha.

Iqtisodiy foyda korxonaning umumiy tushumidan qilingan xarajatlar ayirmasini bildiradi. Agar korxonaning mahsulot yoki xizmat sotishdan tushgan daromadi qilingan xarajatlardan kam bo'lsa korxona zarar ko'rayotganini bildiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Грачева М.В. Проектный анализ: финансовый аспект: Учебное пособие.: Экономический факультет МГУ имени М.В.Ломоносова, 2018.
2. Кан Е.Д. Подходы и методы оценки эффективности деятельности предприятия// Экономика и бизнес: теория и практика, 2018.
3. <https://uz.istanbulbear.org/valovyiy-dohod-chto-eto-takoe-i-kak-ego-rasschitat-19622>



## QO'SHILGAN QIYMATNI SOLIQQA TORTISHNING XORIJ TAJRIBASI

**Yuldashev Elmurod Turayevich**

## Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistrantı

Email: elmurod.yuldashev@ipotekabank.uz.

Tel: +998937657404

**Annotatsiya:** Maqolada, xorijiy davlatlarda qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjetini shakllantirishdagi roli, soliq solish obyekti va bazasi, soliq stavkalari hamda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun berilgan soliq imtiyozlari haqida bayon etilgan. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i tadbirkorlarni rag'batlantirishning moliyaviy vositasi ekanligi ko'rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** qo‘shilgan qiymat, soliq bazasi, soliq obyekti, soliq to‘lovchilar, soliq imtiyozlari, soliq staykalari, egri soliq, oborot solig‘i.

Hozirgi vaqtida qo'shilgan qiymat solig'i Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lган mamlakatlarning davlat byudjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o'rın egallaydi. Evropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Evropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lган mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi [1].

Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqga ega ekanligining asosiy sabablaridan biri, bu mamlakatlarda soliq stavkalarini umumlashtirilganligi va soliqqa tortish bazasini o'zaro uyg'unlashtirilganligi hisoblanadi. Bu masalaning O'zbekiston Respublikasi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi shundaki, mamlakatimiz tovaroborotining sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog'iston Respublikalariga to'g'ri keladi. Hozirga qadar mazkur mamlakatlar o'rtasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini umumlashtirish va soliqqa tortish bazasini uyg'unlashtirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Evropa Ittifoqi (EI)ning maxsus Direktivasiga muvofiq 1992 yilning 19 oktyabridan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ining minimal stavkalari belgilab berildi. Xususan, 1993 yilga qadar minimal stavkalarda qo'shilgan qiymat solig'ini olish bitta mamlakatda amalga oshiriladigan bo'ldi. Ya'ni, nollik stavka eksportyor mamlakatida qo'llaniladi, minimal stavkalar bo'yicha tovarlar va xizmatlar importyorlarning mamlakatida soliqqa tortiladi [2]. Jismoniy shaxslar tomonidan sotib olingan tovarlar mazkur tovarlar ishlab chiqarilgan mamlakatda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Chunki, Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar o'rtasida fuqarolarning harakatlanishi erkin bo'lib, ular turli mamlakatlarda o'zlarining shaxsiy is'temollari uchun tovarlar xarid qiladilar. Shuning uchun qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni osonlashtirish maqsadida tovarlar sotib olingan mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Fuqarolar yashash joylariga qaytib kelganlarida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaydilar.

Frantsiyada standart soliq stavkalari mavjud bo‘lib, 1998 yildan boshlab, ularning miqdori 20,6 foizni tashkil qiladi. Bundan tashqari qo‘shilgan qiymat solig‘ining pasaytirilgan va oshirilgan stavkalari ham mavjuddir. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining pasaytirilgan stavkalari 5,5 foiz va 2,1 foizni tashkil etsa, oshirilgan stavka 25 foizni tashkil etadi [3]. Frantsiyada va Evropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan boshqa mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiya qilingan mablag‘lardan qo‘shilgan qiymat solig‘i olinmaydi. Shuningdek, tijorat banklari, moliya muassasalari, o‘quv yurtlari qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lamaydilar.

Buyuk Britaniyada qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan dastlabki paytda uning stavkasi 10 foizni tashkil qilar edi, keyin esa soliq stavkasi 8 foiz qilib belgilandi. Hozirgi vaqtida asosan 3 xildagi qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi mavjud bo'lib, nollik stavka, pasaytirilgan stavka (5%) va oshirilgan stavka (17,5%) lardan iborat [4]. Pasaytirilgan stavkada shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladigan elektr toki hamda gaz qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Nollik stavkada esa oziq-ovqat mahsulotlari, jamoat transporti xizmatlari nashriyot mahsulotlari, urug'chilik va chorvachilik mahsulotlari soliqqa tortiladi. Buyuk Britaniyada ta'lim, meditsina xizmatlari, sug'urta va brokerlik xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi. Shunisi e'tiborliki, Buyuk Britaniyada yillik



oboroti 54 000 funt sterlingacha bo‘lgan tadbirkorlar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashdan ozod qilinganlar (O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni belgilashda tadbirkorlar yillik oborotining miqdori hisobga olinmaydi). Bizning fikrimizcha, mulk shaklidan va iqtisodiy maqomidan qat’iy nazar, barcha tadbirkorlarga qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortilmaydigan yillik oborot miqdorini belgilab qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ko‘plab faoliyatini endi boshlagan tadbirkorlar ishlab-chiqarish va muomala xarajatlarining yuqori bo‘lganligi sababli, ishlab chiqargan tovarlarning bahosini pasaytirish imkoniyatiga ega emaslar. Ularga nisbatan 20 foizli qo‘shilgan qiymat solig‘ini qo‘llanilishi tovarlar bahosini sezilarli ravishda o‘sishiga olib keladi. Natijada mazkur tadbirkorlar ishlab chiqargan tovarlarning raqobatbardoshligi yanada pasayadi.

Irlandiyada 2001 yildan boshlab, qo‘shilgan qiymat solig‘ining standart stavkasi 20 foiz qilib belgilandı. Mazkur stavka 2001 yilga qadar 21 foizni tashkil qilar edi. Standart stavkadan tashqari, nollik stavka va pasaytirilgan stavkalar (12.5 – 4.3 foiz) mavjud. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozlar nollik stavkani qo‘llash shaklida soliqqa tortilmaydigan yillik oborotni belgilab qo‘yish shaklida qo‘llaniladi.

Irlandiyaning eksport salohiyatini oshirish maqsadida eksportga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘ining nollik stavkasi qo‘llaniladi. Bundan tashqari agar tadbirkorning tovoroborotining umumiy hajmida eksport operatsiyalarining salmog‘i 75 foizdan oshsa, u holda tadbirkor nollik stavkadan foydalanishga haqli hisoblanadi [5].

Belgiyada mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ining 2 ta pasaytirilgan stavkasi qo‘llaniladi. 6 foizli pasaytirilgan stavkada asosan, oziq-ovqat mahsulotlari, suv ta’moti, kinoteatrlar va mehmonxonalar xizmati qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladi. 12 foizli pasaytirilgan stavkada esa kommunal to‘lovlar, qishloq xo‘jalik mahsulotlari qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladi. Pasaytirilgan stavkalardan tashqari, qo‘shilgan qiymat solig‘ining asosiy stavkasi ham mavjud bo‘lib, uning miqdori 21 foizni tashkil qiladi.

Italiyada qo‘shilgan qiymat solig‘ining stavkaları 4, 10 va 20 foizni tashkil qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari, eksportga tovar sotish va kompaniyalarining aktivlarini sotib olish xarajatlari qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortilmaydi.

Gollandiyada 2001 yildan boshlab, qo‘shilgan qiymat solig‘ining standart stavkasi 19 foizni tashkil qiladi. Mazkur stavka 2001 yilga qadar 17 foizni tashkil qilar edi. 6 foizli pasaytirilgan stavka oziq-ovqat mahsulotlariga, jamoat transport xizmatlariga, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ayrim turlariga nisbatan qo‘llaniladi. Nollik stavkalar esa eksportga nisbatan qo‘llaniladi. Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar va ayrim turdagı moliyaviy xizmatlar qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortilmaydi.

Shvetsiyada qo‘shilgan qiymat solig‘ining asosiy stavkasi 25 foizni tashkil qiladi. 12 foizli pasaytirilgan stavkalar oziq-ovqat mahsulotlariga va mehmonxona xizmatlariga nisbatan qo‘llaniladi. 6 foizli pasaytirilgan stavka esa ro‘znomalarga va madaniy tadbirlarga nisbatan qo‘llaniladi. 2001 yildan boshlab, yo‘lovchi transporti xizmatlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ining stavkasi amaldagi 12 foizdan 6 foizga tushirildi. Shunisi e’tiborlik, Shvetsiyada yillik oboroti 1 mln. Shvetsiya Kronidan oshmaydigan tadbirkorlar qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilinganlar [6].

XX asrning 80 yillaridan boshlab, qo‘shilgan qiymat solig‘i Amerika, Afrika va Janubiy-Sharqiy Osiyo hududidagi mamlakatlarning soliq amaliyotiga joriy qilindi. Yaponiya, Turkiya Hindiston, Indoneziya, Braziliya, Kolumbiya, Misr kabi davlatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘i mana shu davrda joriy qilingan.

Yaponiyada qo‘shilgan qiymat solig‘i 1984 yilda joriy qilingan. 1989 yilga qadar Yaponiyada qo‘shilgan qiymat solig‘ini joriy etilishi ishlab-chiqarilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir qildi. Bu ta’sir ayniqsa, qo‘shilgan qiymat salmog‘i sezilarli bo‘lgan yuqori texnologiyali tarmoqlarga nisbatan kuchli bo‘ladi, degan g‘oya mavjud edi. Shuning uchun Yaponiyada Evropa davlatlariga nisbatan uzoq muddat mobaynida qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilmadi.

Rossiya Federatsiyasida 1992 yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i oborot solig‘ining o‘rniga joriy etildi. Bu soliq oborot solig‘idan farqli ravishda faqat qo‘shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig‘i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i esa ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi [7].

Ayni vaqtida, xorijiy mamlakatlar amaliyotida ham qo‘shilgan qiymat solig‘ini davlat byudjetiga jalb qilishda sezilarli muammolar mavjud. Ana shunday asosiy muammolardan biri, ishlab



chiqarish va muomala jarayonlarining har bir bosqichida yaratilgan qo'shilgan qiymatni to'liq hisobga olish imkonining mayjud emasligi hisoblanadi. Soliq organlari soliq to'lovchilarning barcha schyot-fakturalarini tekshirish uchun jismoniy imkoniyatlarga ega emaslar. Shuning uchun schyot-fakturalar tanlanma tekshiruv asosida tekshiriladi. Bunda har bir bitim bo'yicha amalgalashirilgan operatsiyalarning natijalari hisobotlarda o'z aksini topmaydi, hisobotlarda faqat qoldiq ko'rsatkichlar o'z aksini topadi. Bundan tashqari, soliq organlari bojxona organlaridan har doim ham ishonchli ma'lumotlarni to'liq hajmda ololmaydilar. Buning sababi shundaki, soliq to'lovchilar tomonidan bojxona hujjatlarini noto'g'ri to'ldirilganligi hisoblanadi. Masalan, Shvetsiyada hisobotlardagi taqqoslab bo'lmaydigan ma'lumotlarning 87 foizi hujjatlarni noto'g'ri to'ldirish natijasida yuzaga kelgan nomuvofiqlikga to'g'ri keladi, 10 foizi esa soliq davrlarining mos kelmasligiga to'g'ri keladi [8].

Soliq siyosatiga bo'y sunish alohida soliq to'lovchi shaxsning soliqlarni to'lash yoki ulardan qochishga qaror qilishga moyilliklarini o'rgangan holda tadqiq qilindi. 30 dan ortiq mamlakatlar misolida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki yuqori darajadagi iqtisodiy erkinlik, samarali raqobatga yo'l ochuvchi qonunlar, qimmatli qog'ozlar bozonining ahamiyati va axloq normalari soliq tizimiga hayrixohlikka ijobjiy ta'sir etadi.

Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, QQS stavkalari belgilanishini ikki xil, ya'ni "eski" va "yangi" modelga ajratib o'rghanish mumkin. "Eski" model asosan aholi daromadlilik darajasi baland bo'lgan Yevropa mamlakatlariga xos bo'lib, unda soliqning stavkasi nisbatan yuqori (o'rtacha 21 foiz). Shu bilan birga, Yevropa mamlakatlarining qariyb barchasida (93 foizida) ijtimoiy xarakterdag'i tovar va xizmatlar uchun soliqning imtiyozli stavkalari qo'llanadi. QQSning "yangi" modeli esa ko'proq Yaqin Sharq hamda Janubi-sharqi Osiyo mamlakatlariga xos bo'lib, soliqning yagona va past (o'rtacha 10 foiz) stavkasi amal qiladi [9].

Xorijiy mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini daromad manbai sifatida qo'llash tajribasini o'rghanish natijalari shuni ko'rsatdiki:

birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy kon'yunkturaning tebranishlariga bevosita bog'liq bo'limgan barqaror daromad manbai hisoblanadi;

ikkinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i aholini nisbatan kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish imkonini beradi;

uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi;

to'rtinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i faoliyatini yaqinda boshlagan va katta miqdordagi tovaroborotiga ega bo'limgan tadbirkorlarni rag'batlantirishni moliyaviy vositasi hisoblanadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

- Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложения. -М.: МЦФЭР. 2003. 57 стр.
- Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. -М.: "Кнорус". 2004. стр 204
- Сердюков А. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. -СПб.: "ПИТЕР". 2005. стр. 51
- Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 206
- Поляк Г. Налоги и налогообложение. -М.: "ЮНИТИ". 2002. стр. 46
- Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. стр. 131.
- Черник Д., Павлова Л., Дадашев А. Налоги и налогообложение. //Учебник. -М.: ИНФРА-М. 2003. стр. 45
- Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 134.
- Niyazmetov I.M. Qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmini takomillashtirish. Logistika va iqtisodiyot. 2021(2). 322-335.



## ZAMONAVIY MENEJMENT YONDASHUVLARI ASOSIDA XALQ TA'LIMI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Ibrohimova Shoira O'ktamovna  
Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lismi boshqaruvining ahamiyati va uning turlari haqida so'z boradi. Ayniqsa, uzlusiz ta'lismi o'rta ta'lismi muassasalarini bo'lgan maktab boshqaruviga alohida e'tibor qaratilgan. Umumiy o'rta ta'lismi maktablarining boshqaruviga ularning xususiyatlari hamda rivojlantirish mumkin bo'lgan sohalarini mukammallashtirib strategyalash kunning dolzarb masalasi ekanligini muhokama qilingan. Maktab boshqaruvida ahamiyatga ega jihatlar ta'kidlanib, maktab boshqaruviga mas'ullar va ularning shaxsiy xususiyatlaridan tortib boshqaruv strategiyalarini rivojlantirish to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** modernizatsiya, maktab faoliyati, innovatsion yondashuv, klaster, pedagogik ta'lismi innovatsion klasteri, omillar, "maktab-laboratoriya", innovatsion tajriba mexanizmlari, demokratlashtirish, raqobat, tahlil.

Ta'limi boshqarish nazariyasida uning o'ziga xosligi ma'lum mezonlarga ko'ra tasniflangan boshqaruvga turli yondashuvlarda namoyon bo'ladi. Bu yondashuvlar boshqaruv jarayonining mohiyatini belgilab beradi va uning evolyutsiyasini tarixiy-pedagogik tadqiq qilish jarayonida tahlil predmeti bo'lib xizmat qilishi, ushbu boshqaruvning yetakchi paradigmasini kvalifikatsiya qilish funksiyasini bajarishi mumkin. Shubhasiz, ularning har biri boshqaruvni shakllantirish jarayonida u yoki bu tarixiy bosqichda ma'lum foyda keltirgan.

Respublikamiz ta'lismi ko'plab islohatlar kadrlar tayyorlash sohasida ta'lismi turlari o'rtasida aloqa va uzviylik ta'minlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'ziga xosligi va talab hamda ehtiyojlarining to'liq hisobga olinmasligi, mehnat bozoridagi talab va taklifning chuqur o'rganilmasligi natijasida kadrlarning hududlar kesimidagi taqsimotida muvozanatning buzilishi bilan bog'liq kamchiliklar kuzatildi. Bunga ayrim hududlarda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning yillar davomida qondirilmasligiga sabab bo'lmoqda.

Intellektual salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, fan, ta'lismi va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviylik va aloqadorlik mustahkam yo'lga qo'yilsa, bu yo'nalihsda malakali kadrlar tayyorlash, ularning bandligini ta'minlash hamda mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Ayniqsa uzlusiz ta'lismi rivojlantirishda yangi mexanizmlarning yaratilishi bugungi global lashuv jarayonlarining hayotiy zaruratiga aylandi va bu o'z navbatida ta'lismi sifati samaradorligini oshirish, uni modernizatsiya qilishni taqozo etadi. Umumiy o'rta ta'lismi muassasalarining turmush tarzi ta'sirining o'quv jarayonining samaradorligiga ta'siri pedagogikada alohida ahamiyatga ega.

Ta'lismi muassasalarini rahbarlari maktabning turmush tarzini ta'lismi muhitining, hamkorlik va hamkorlikning sifati bilan bog'liq holda rivojlantirish lozim. Maktab hayotining mazmuni va tashkil etilishi, texnologik tayyorlash va boshqarish, o'qituvchilar malakasini oshirish tizimining mazmuni maktab faoliyatini rivojlantirish shartlaridandir.

Maktab faoliyatini samarali tashkil qilish va rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarning aksariyatida quyidagi tadqiqot usullari qo'llanilgan:

- qiyosiy tarixiy, falsafiy, pedagogik, ijtimoiy, madaniy, adabiyotning kontseptual va terminologik tahlili;
- zamonaviy ta'lismi amaliyotini tahlil qilish;
- modellashtirish (tizimni o'rganish usuli sifatida ishlataladi va natijada yaratilgan maktab tuzilmasi modeli turli davrlardagi maktab tuzilmalarini taqqoslash maqsadiga xizmat qildi);
- empirik (maktab hayotining tajribasini tahlil qilish va sintez qilish, materiallarni o'rganish va maktablarning ta'lismi faoliyati natijalari, hujjatlarni tahlil qilish, maktabning me'yoriy-uslubiy asoslari, muntazam kuzatuvlar).

Zamonaviy ilm-fan va amaliyotda turli ilmiy makonlar yaratilmoqda, ularda maktab faoliyatini samarali tashkil etishning maqsadli shakllanishi zarurligi to'g'risidagi g'oyalar doirasi yaratilib, muayyan o'quv yurtlarining tuzilmalarini yangilash uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarni, tadqiqotlarni, maktab amaliyotini, turli darajada me'yoriy hujjatlarni



o'rganish, ta'lismi rivojlantirish istiqbollarini belgilash, milliy maktab hayotining zamonaviy usulda rivojlantirish bir qator qarama-qarshiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Jumladan:

- ijtimoiy va pedagogik hodisa sifatida maktablar faoliyatini rivojlantirishning hamkorlikdagi birlashtirilgan ilmiy nazariyaning yo'qligi. (Jamiyatning va davlatning talablari o'tasida shaxsnинг ma'naviy-axloqiy taraqqiyotini va tarbiyalanishini ta'minlaydigan bunday tuzilmani shakllantirishni taqozo qilmoqda);

- maktablarning faoliyatini samarali shakllantirish va rivojlantirish nazariyasini hamda tarixiy-pedagogik amaliyotini o'rganishda ichki ta'limga ob'ektiv ehtiyojlari va tadqiqot ma'lumotlarining etishmasligi;

- milliy pedagogika tarixida maktablarning samarali faoliyatini shakllantirishdagi muvaffaqiyatlari tajriba va zamonaviy pedagogik amaliyotda yuqori ko'rsatkichlardagi maktab namunalarini yaratishga etaricha e'tibor berilmasligi;

- maktab tuzilmalarining bunday o'zgarishida jamiyatning ko'p tarkibli hayotiga mos keladigan zamonaviy ijtimoiy dasturlar va maktab tuzilmalari rivojlanishidagi tendensiyalarning nazariy rivojlanmaganligi va hokazo.

Ushbu qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bu yo'naliishda ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlarning hajmini orttirishni va ularni o'rganishni talab qiladi.

Zamonaviy maktablar amaliyotida maktab rivojlanishining tendentsiyasini o'rganish va maktab hayotining o'zgarishi, muayyan o'qituvchilarining sa'y-harakatlari natijasida tuziladigan tarkibdagi innovatsiyalar ta'siri ostida yuzaga kelishi mumkin. Maktab tuzilmalari rivojlanishida yetakchi tendentsiya ta'limga siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan kelib chiqadigan integratsion ahamiyatga ega bo'lgan tendentsiyalardir. Ta'limga sohasini integratsion tamoyillar asosida samarali rivojlantirish davlat ta'limga standartlari, ta'limga muassasalarida ta'limga tadbirlarining ustuvor yo'naliishlarini aniqlash, oliy o'quv yurtlari o'rtaqidagi hamkorlokniga takomillashtirish, ta'limga tarmog'i ichida “maktab-laboratoriya” majmualarini yaratish, ta'limga xizmatlari, resurs markazlarini tashkil etishni rivojlantirishni talab qiladi.

Shunday qilib, ta'limga muassasasini zamonaviy sharoitlarda rivojlantirish dasturi - bu ta'limga muassasasiga o'z ta'limga faoliyatini ta'limga faoliyati natijalariga qo'yiladigan davlat, mintaqaviy va shahar talablariga muvofiq modernizatsiya qilishga yordam beradigan innovatsion mexanizm. Bizning fikrimizcha, ta'limga muassasasida ikkita hujjat mazmunini ajratishga yana bir bor e'tibor qaratish juda muhim: ta'limga dasturi va rivojlantirish dasturlari. Ta'limga faoliyati mazmuni tartibga solinadi ta'limga dasturi - o'quv faoliyati jarayonida talaba va o'quvchining maqsadlari, mazmuni, texnologiyalari, o'zgarishlari natijalarini belgilaydigan hujjat. Ushbu hujjat mazmunining davlat ta'limga standartiga, asosiy umumiyyatiga ta'limga dasturining tuzilishiga qo'yiladigan davlat talablarini muvofiqligini litsenziyalash va davlat akkreditatsiyasi ta'limga muassasasi kiradi.

Xulosa Qisqa qilib aytganda, Rivojlanish dasturi ta'limga dasturini amalgalash oshirishni ta'minlovchi ta'limga muassasasi infratuzilmasidagi o'zgarishlarni tavsiflaydi. Ta'limga dasturi ta'limga maqsadlarining dolzarbligi, mazmunning innovatsionligi, qo'llanilayotgan ta'limga texnologiyalari va o'quv-uslubiy majmualarning zamonaviyligi, ya'ni ta'limga dolzarbligi va zamonaviyligini asoslaydigan barcha jihatlarni ochib berish mumkin. Rivojlanish dasturida ta'limga jarayonini sifat, qulaylik va samaradorlikni oshirish yo'naliishida ta'minlashning huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, boshqaruv va moddiy sharoitlarini o'zgartirishga e'tibor qaratish zarur.

### Foydalananilgan adabiyotlat ro'yxati

1. A.Nizamov, F.Gayullaev, U.Zahidova. Development of foreign joint educational programs in the higher education system of the Republic of Uzbekistan. E3S Web of Conferences. 2023, p. 02019.
2. A.A.Nizamov. Security Analysis of the External Economic Activity of the Enterprise in the Conditions of the Digital Economy. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. 2023, pp. 1-4.
3. S.A.Toshtemirova Ta'limga sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'limga. 2020 № 1 (86). – 5b.



## ТИББИЙ ХИЗМАТЛАР БОЗОРИНИ РИВОЖЛANIШИНИ ТАШКИЛИЙ-ХУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Эрметова Икбол,

Урганч Давлат университети Менежмент ва  
маркетинг кафедраси ўқитувчи  
[dilmurodotashev@gmail.com](mailto:dilmurodotashev@gmail.com)

**Аннотация:** Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси тиббий хизматлар бозорини ривожлантиришнинг ташкилий-хуқуқий механизмлари очиб берилган.

**Калит сўзлар:**хизмат, тиббиёт, тиббий хизмат, тиббий хизматлар бозори, бозор иқтисодиёти

Ҳозирги кунда мамлакатимиз ўзининг бозор иқтисодиётига асосланган янги стратегик иқтисодий ва ижтимоий ислоҳотларни назарда тутувчи тизимларни ташкил этмоқда. Давлатимиз ана шундай узоқ йилларга мўлжалланган мақсадлари негизида халқимиз турмуш фаровонлигини яхшилаш, аҳолининг ҳар томонлама иқтисодиётда фаоллигини ошириш, турмуш кечириш сифатини ва самародорлигини таъминлаш асосий йўналиш ҳисобланади. Кейинги йилларда мамлакатимизда товарлар бозори ривожланиши билан хизматлар бозори ҳам ўз йўналишларини белгилаб олди. Иқтисодиётда фаол турмуш тарзини амалга оширувчи ҳар қандай шахс бевосита тиббий хизматлардан фойдаланишини ҳисобга олиб, Ўзбекистон бу борада сифатли тиббий хизматлар бозорини ташкил этишга алоҳида эътибор қаратмоқда. Тиббий хизматлар бозорини ривожланиши ва унинг хизматлар бозорида талаб ва таклифнинг юзага келиши мазкур давлатнинг иқтисодий ривожланишига, албатта биринчи навбатда, муайян олинган бир давлатда тиббий хизматларни ривожлантириш учун яратилган ҳуқуқий асосларга, унигг қонун томонидан қанчалик мустаҳкам химоя қилинганлигига боғлиқдир. Ундан сўнг эса, албатта давлат тиббиёт тармоғини қанчалик молиявий жиҳатдан қўллаб қувватлаши мухим ўрин тутади. Кейинги йилларда Ўзбекистонда тиббиёт соҳасига оид ишлаб чиқилган қонун ва қонун ости ҳужжатлари асосан тиббий хизматлар самародорлигини ошириш, молиялаштиришнинг қўшимча маблағларини аниқлаш, соҳа ресурсларидан оқилона фойдаланиб кенг қўламли тиббий хизмат қўрсатиш кафолатини таъминлаш, тиббий хизмат қўрсатувчилар ва улардан фойдаланувчиларнинг ҳукуқ, вазифа ва бурчларини аниқлаш ва химоя қилиш, аҳолининг қулай ва сифатли тиббий хизматлардан фойдаланиши таъминлаш, тиббий химатлар соҳасига янги тиббиёт технологиясини жалб этиш, аҳолининг тиббий хизматларга бўлган эҳтиёжини қондириш, тиббий хизматларни умумжамият миқёсида қўрсатилишини таъминлаш каби устувор йўналишларга қаратилган.

Мамлакатнинг иқтисодий ривожланиш даражаси нафақат тиббий хизмат таклифини (тиббий хизмат қўрсатишнинг қанчалик ва қандай хизмат қўрсата олиши) балки ушбу хизматларга бўлган талабнинг шаклланганлиги ва унинг қондирила олиш имкониятлари билан белгиланади. Аҳолининг тиббий хизматларга бўлган талаби ушбу соҳада кейинги йилларда кузатилаётган ўзгаришлар туфайли кескин ортиб бормоқда. Биламизки, аҳоли саломатлиги бир неча омилларга: ҳаёт тарзи ва турмуш кечириш шарт- шароитлари, атроф-муҳитнинг ҳолати, тиббий хизматларнинг самарадорлиги ва сифатига боғлик бўлиб, иқтисодий жиҳатдан ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлар ахолиси илмий-техник ривожланиш шароитида тиббий хизматлардан фойдаланишга зарурат сезади. Бу билан, давлат аҳолининг сифатли турмуш кечиришига, уларнинг шаҳсий даромади ва тиббий хизматларга бўлган эҳтиёжи ўртасида узвий боғлиқликни инобатга олган ҳолда, тиббий хизматларнинг тенглигини таъминлашни назарда тутади.

Ўзбекистонда тиббий хизмат қўрсатишни ташкил этиш ва бошқариш тизимида ишлаб чиқилган дастурлар доирасида сезиларли ишлар амалга оширилди. Кейинги йилларда мамлакатда пуллик ва бепул тиббий хизматларга белгиланган баҳоларнинг ҳолатини назорат вилиш ва уларни давлат даволаш-профилактика муассасалари тамонидан кафолатланган тарзда қўрсатилиши, дастлабки йиллардаги “Фуқаролар соғлигини сақлаш тўғрисида” ги қарорда ўз аксини топган. 1998-йил 10-ноябрдаги “Соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ килиш Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-2107-сонли Фармонида асосан, аҳолининг имтиёзли бепул тиббий хизматлардан фойдаланувчи тоифалари белгилаб бе-



рилди. Фармонда асосан, Вазирлар Маҳкамасининг тегишли қарори билан амбулатор шароитда бепул дори-дармон билан таъминланадиган; онкологил касалликлар, захм, сил, руҳий, гиёхвандлик ихтисослашган шифохоналарда юқумли касалликлар, ОИВ касалликлари, эндокринологик касалликлар тиббий хизматлардан фойдаланадилар. Стационар шароитда бепул тиббий хизматлардан; болаликдан ногиронлар, 2-3-гурух ногиронлари, ғирт етимлар, 1941-1945-йиллар уруш қатнашчилари ва уларга тенглаштирилганлар ёлғиз пенсионерлар, 1941-1945-йилларда меҳнат фронти қатнашчилари, Байналминалчи жангчилар, чернобел АЭС ҳалокати қатнашчилар, 17 ёшгача бўлган ўсмирлар, 18-27 ёшдаги ҳарбий хизматга йўлланувчилар фойдаланишлари мумкин. Юкоридагиларга қўшимча тарзда давлатимиз томонидан кафолатланган тиббий хизматлар ташкил этилиб, ҳудудий соғлиқни саклаш бошқармалари томонидан маҳсус йўлланмалар ордер бериш каби имтиёзларни ҳам ишлаб чиқилган<sup>1</sup>. Ўзбекистон Республикасининг “Аҳолининг санитария-эпидемологик хотиржамлиги тўғрисида”ги, “Йод танқислиги касалликлари профилактикаси тўғрисида” ги, “2014-2018-йилларда “Ўзбекистон аҳолисининг репродуктив саломатлигини мустаҳкамлаши оналар болалар ва ўсмирлар соғлигини муҳофаза қилиши борасида Давлат дастури тўғрисида” ПҚ-2221-сонли қарорлари қабул қилинди. Қарорга асосан, 2014-2018-йилларда Ўзбекистон Республикасида тиббий хизматлар бозорига поганасимон инвестиция дастурларини жалб қилиш ва аҳолининг тиббий хизматлардан доимий қулай ва самарали ташкил этилишини назарда тутади<sup>2</sup>.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2005-йил 25-январдаги 30-сонли қарорида, “Сиҳат-саломатлик йили” Давлат дастури тўғрисидаги қарори доирасида, аҳолининг соғлом турмуш тарзини янада шакллантириш, соғлиқни саклаш, соғлом турмуш тарзини олиб бориш, ўз ҳаёт фаолиятини оқилона ташкил қилиш, тиббий маданиятни ошириш ва оиласда турмуш тарзини соғломлаштириш, умуман олганда минтақа аҳолисининг тиббий хизматлардан фойдаланиш имкониятларини яратиш назарда тутилади<sup>3</sup>.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, соғлиқни саклаш тизимидағи чукур салмоқли ислоҳотларнинг ҳуқуқий асослари ва айнан шу ислоҳотлар натижасидаги жойларда амалга оширилган амалий ишлар айниқса кейинги 6 йилда яққол намоён бўлди. Аҳолига давлат томонидан сифатли тиббий хизмат кўрсатиш шарт-шароитларини яхшилаш мақсадида, 2017-йил 1-апрелда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан қабул қилинган “Соғлиқни саклаш соҳасида хусусий секторни янада ривожлантириши чоратадибирлари тўғрисида”ти ПҚ-2863-сонли қарорга мувофиқ, тиббий хизматлар бозорини ривожлантириш, хусусий секторни кўллаб-қувватлашга ёрдам бериш, хусусий тиббий хизмат кўрсатиш муассасалари барқарор ривожланишга тўсқинлик қиласидаги масалаларини ҳал этиш, тиббиёт муассасаларнинг замонавий тиббий хизмат кўрсатишга имкон берувчи юқори технологиялар, тиббиёт ускуналари, маҳсус инвентар ва бошқа жихозлар билан таъминлаш, қулай кредит ва лизинг механизмларини хусусий тиббиёт муассасаларига жалб этишга имкон яратиш, хусусий тиббий хизмат кўрсатиш соҳасига фаол хорижий инвеститцияларни жалб этишни рағбатлантиришга, аҳолига давлат томонидан бепул тиббий хизмат кўрсатишни инобатга олган ҳолда тиббий суғурта тизимини мамлакатда жорий этиш ва у орқали сифатли ва арzon тиббий маслаҳат, ташхис, даволанишни ташкил этиш, мамлакатда пуллик тиббий хизматлар бозорини жадал ривожлантириш, тиббиёт соҳасига малакали кадрларни жалб этиш орқали самарали тиббий хизмат кўрсатишни таъминлашга қаратилган. Бундан ташқари, тиббий соҳасида кўрсатилган тиббий хизматларнинг сони ва уларнинг сифат жиҳатидан муқаммалаштиришни таъминлаш мақсадида сўнги йилларда хусусий тиббиёт муассасаларнинг сонини 2 бараварга кўпайтиришга эришганимиз ушбу соҳага давлат томонидан берилаётган имкониятлар натижаси деб қаралади. Ушбу қарорда, аҳолининг барча қатламларининг тиббий хизматдан тўлақонли фойдаланишни ҳисобга

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг Соғлиқни саклаш тизимини ислоҳ қилиш давлат дастури тўғрисида. ПФ-2107 сонли фармони. 10.11.1998. <https://lex.uz/>

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014-2018 йилларда Ўзбекистонда аҳолининг репродуктив саломатлигини янада мустаҳкамлаш, оналар, болалар ва ўсмирлар соғлигини муҳофаза қилиш борасидаги давлат дастури тўғрисида ПҚ-2221 сонли Қарори //lex.uz

3 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2005-йил 25-январдаги 30-сонли «Сиҳат-саломатлик йили» давлат дастури тўғрисида қарори. <https://lex.uz/>



олиб, қишлоқ жойларда хусусий тиббиёт субъектларни ривожлантириш ва уларга бир қатор имтиёзлар берилгани билан аҳамиятлидир. Унга кўра, қишлоқ жойларида аҳолига тиббий хизмат кўрсатиш бозори инфратузилмасини ривожлантириш, унинг моддий техник базасини мустаҳкамлаш ҳамда унга кредит ва молиявий ёрдам кўрсатиш белгилаб қўйилган.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш давлат дастури тўғрисида. ПФ-2107 сонли фармони. 10.11.1998. <https://lex.uz/>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014-2018 йилларда Ўзбекистонда аҳолининг репродуктив саломатлигини янада мустаҳкамлаш, оналар, болалар ва ўсмирлар соғлигини муҳофаза қилиш борасидаги давлат дастури тўғрисида ПҚ-2221 сонли Қарори //lex.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2005-йил 25-январдаги 30-сонли «Сиҳат-саломатлик йили» давлат дастури тўғрисида қарори. <https://lex.uz/>



## ТИББИЙ ТУРИЗМНИНГ МАЗМУН МОҲИЯТИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Эрметова Иқбол  
Урганч Давлат университети,  
Менежмент ва маркетинг  
кафедраси ўқитувчиси  
dilmurodotashev@gmail.com

Дунё мамлакатларида тиббий туризм янги даврда янги тенденциялар билан ривожланмоқда. Жаҳонда тиббий туризм ривожланганлик даражасини баҳолаш учун Халқаро соғлиқни сақлаш илмий-тадқиқот маркази (International Healthcare Research Centre) томонидан тиббий туризм индекси (MTI) ишлаб чиқилган бўлиб, у бугунги кунда турли мамлакатларда тиббий туризмнинг ривожланганлик даражасини комплекс баҳолашда фаол кўлланилмоқда. MTI кўрсаткичи ўз ичига 3 та йўналиш бўйича 41 та мезонни қамраб олади<sup>1</sup>: мамлакатда тиббий саноат ривожланиш даражаси, тиббий дестинациянинг ташқи муҳити ва кўрсатиладиган тиббий хизматнинг сифати.

MTI ҳамда Oxford Economics ва Visa тадқиқот корпорацияларининг маълумотларига кўра, 2020 йилда жаҳон тиббий хизматлари бозори 439 млрд. АҚШ долларига баҳоланганд бўлиб, 2025 йилга бориб 3 трлн.АҚШ долларига этиши кутилмоқда<sup>2</sup>.

Дам олиш ва юқори тиббий хизматларни таклиф этиш нафақат ахолига соғлом ҳаёт балки, сифатли тиббий хизматлардан фойдаланиш имконини беради. Тиббий туризм бир вақтнинг ўзида бир неча йўналишларни- соғлиқни тиклаш, дам олиш, транспорт, овқатланиш, даволаш каби асосий элементлар билан бирлашиб, инсон соғлигига таъсир кўрсатади.

Глобаллашув шароитида инсон кутилмаган хавф-хатарга дуч келиши мумкин. Кундалик стресс ва одатдаги ҳаёт ритмининг маълум сабабларга кўра бузилиши тиббий хизматларга бўлган талабни оширади. Бироқ, туристик саёҳат қилишда хавф даражаси сезиларли даражада ошиши натижасида халқаро туризм бозорида туристлар хавфсизлигини таъминлаш биринчи ўринда қаралади. Шунинг учун туризмнинг ҳар қандай турини ташкил этишининг муҳим элементларидан бири бу - сайёҳларнинг ҳаёти ва соғлиги хавфсизлигини таъминлаш ҳисобланади.

Туризм хавфсизлиги<sup>3</sup> деганда - сайёҳларнинг шахсий хавфсизлиги, уларнинг мол-мулки хавфсизлиги ва саёҳат пайтида табиий муҳитга зарар етказилмаслиги тушунилади. Хавфсизликни таъминлаш миллий қонунчилик доирасида туристларнинг давлат ҳудудида ҳаракатланиш хавфсизлиги, уларнинг турар жойи, соғлифи, ҳаёти ва мол-мулки хавфсизлигини кафолатлайдиган бир катор тадбирларни назарда тутади.

Бутунжаҳон Туризм Ташкилоти (World Tourism Organization) маълумотига кўра, 2017-йил халқаро туризм бозори 5 % ўсиш билан 1.6 трлн.доллар даромад келтирди. Тиббий мақсадда ташриф буюрганлар 14-16 млн. кишини ташкил этди. World Travel & Tourism Council консулликнинг таърифларида 2018-йил халқаро туризм бозори жаҳон иқтисодиётининг 10.4% ни эгаллагани тўғрисида маълумот келтириб ўтган. Халқаро бозорда тиббий туризм янги йўналиш сифатида АҚШ да юксак даражада ривожланди ва 2018-йил 13 млрд.долл фойда келтирди. Global Wellness Institute маълумотларида АҚШ 2025-йилга келиб, халқаро туризм бозорида энг катта улушга эга- 140 млрд. доллар даромад олиши кутилишини таҳмин қилган.

Тиббий туризм - бу чет элда дам олишни юқори малакали тиббий ёрдам олиш билан бирлаштирган ҳолда, яшаш жойидан ташқарида тиббий хизмат кўрсатиш амалиётини англатувчи атама ҳисобланади. Баъзи муаллифлар учун тиббий туризм бу ўз мамлакатидаги бемор учун мавжуд бўлмаган энг яхши тажрибага эга бўлиш имкониятини билдиради

1 MTI Methodology. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://www.medicaltourism.com/mti/methodology> (дата обращения 15.01.2022).

2 Санкт-Петербург - медицинский тревел хаб. [Электронный ресурс]. Режим доступа: [https://www.gov.spb.ru/gov/otrasl/c\\_tourism/news/190860](https://www.gov.spb.ru/gov/otrasl/c_tourism/news/190860) (дата обращения 12.01.2022).

3 Безопасность туризма : учебник / А.Г. Бобкова, С.А. Кудреватых, Е.Л. Писаревский ; под общ. ред. д-ра юрид. наук. Е.Л. Писаревского. — М. : Федеральное агентство по туризму, 2014. — С.98.



деб қаралади. Тиббий туризм - бу энг яхши нархлар ва сифатли тиббий хизматлар орқали даволаниш учун саёҳатдир. Бу борада кўпгина олимлар тиббий туризм тушунчасига турлича таърифлар келтирганлар.

### 1-жадвал

#### Тиббий туризм тушунчаларини аниқлашда турли хил ёндашувлар<sup>1</sup>

Атаманинг талқинлари	Асосий қоидалар	Манбаа
<b>Соғлиқни сақлаш туризми</b>	Асосий мақсади дам олиш ва жисмоний, психологик саломатликни тиклаш бўлган туризм (Дам олиш ва тикланиш туризми)	А.М.Вититнев Курортное дело : учебное пособие изд., стер. — Москва : КНОРУС, 2018. — 528 с.
<b>Жамиятда кишиларнинг қисқа муддатда (24 соат) соглигини тиклашга қаратилган дам олишни тиклаш туризми</b>	Соғлиқни тиклаш ёки такомиллаштириш туризми	C.M.Холл.Ermanno Pitacco.Health Insurance Basic Actuarial Models. More information about this series at <a href="http://www.springer.com/series/7879">http://www.springer.com/series/7879</a> .
<b>Хизмат кўрсатиш, яхшилаш ёки тиклаш мақсадида доимий яшаш жойидан ташқарида уюштирилган саёҳат</b>	Сақлаш, такомиллаштириш ёки соғлиқни тиклаш туризми	П.М.Каррера, Ж. Ф.Бридгес. Ermanno Pitacco Health Insurance Basic Actuarial Models. More information about this series at <a href="http://www.springer.com/series/7879">http://www.springer.com/series/7879</a> .
<b>Профилактика ва дам олиш учун соғлиқни сақлаш туризми.</b>	Узокроқ саёҳат вақти, камроқ шаҳарлар ва узокроқ саёҳат вақтлари билан тавсифланади бир жойда қолиш Касалликларнинг олдини олиш ва дам олиш туризми	Е. Л. Драчева, Ю.В. Забаев, Д.К.Исмаев. Экономика и организация туризма: международный туризм. Учебное пособие для студентов, обучающихся по специальности «экономика и управление на предприятиях (по отраслям)».москва 2005.
<b>Тиббий туризм</b>	Кириш учун узоқ масофаларга саёҳат қилувчиларни тавсифловчи халқаро ҳодиса одатда мавжуд соғлиқни сақлаш юқори харажатлар талааб қилинадиган мамлакатлардан туристик мақсадда саёҳат қилиш, соғлиқни сақлаш тизимидаги навбат ёки ногиронлик даражаси бор кишилар фойдаладилар. Асосан тиббий ёрдам олиш учун жўнаб кетиш	Иқтисодий ва ижтимоий БМТ комиссияси Осиё ва Тинч океани учун океан*

1 Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган



<b>Тиббий туризм Вақтингачалик доимий яшаш жойидан жўнаб кетиш</b>	Соғлиқ ва эвристик мақсадлар	А.М.Ветитнев, Л.Б.Журавлёва.Курортное дело: учебное пособие / изд., стер. — Москва : КНОРУС, 2018. — 528 с.
<b>Соғломлаштириш туризм</b>	Асосий туртки бўлган курортга саёҳат соғлигини сақлаб қолиш ёки уни тарғиб қилиш истагини мустаҳкамлашю.  Сақлаш ёки мустаҳкамлаш соғлиқ	X. Мюллер, Е.Л. Кауфман. Ermanno Pitacco Health Insurance Basic Actuarial Models. More information about this series at <a href="http://www.springer.com/series/7879">http:// www.springer.com/series/7879</a> .
<b>Спа туризм</b>	Соғломлаштириш туризмининг ўзига хос ўзига тури болиб, соғлиқни сақлашга турли дам олиш курорт зоналарга бориш, ва бошқа муолажалар билан согломлаштириш назарда тутилади .	А.Г.Гергишан. Ermanno Pitacco Health Insurance Basic Actuarial Models. More information about this series at <a href="http://www.springer.com/series/7879">http:// www.springer.com/series/7879</a> ..

Туризм бўйича тадқиқотлардан сўнг А.Шарман<sup>1</sup>, тиббий туризм глобал ҳодиса бу фуқароларнинг юқори сифатли ва арzon тиббий хизмат-лардан фойдаланиши деб таърифлайди. Г.Ю.Щекин<sup>2</sup> эса "тиббий туризм" атамаси доимий яшаш жойидан ташқарида бўлган беморларга тиббий хизмат қўрсатишни ташкил қилишни англатади деган фикрни билдиради.

Фикримизча, тиббий туризм тор маънода, анъанавий равишда беморларнинг ҳар қандай минтақада ёки мамлакатда даволаниш, реабилитация ва дам олиш жойига кўчиши деб тушуниш мумкин. Бу ерда тиббий туризм тиббиёт ижтимоий институтининг қуи тизими сифатида эмас, балки туризмнинг ижтимоий-маданий комплексининг қуи тизими сифатида қаралади.

Соғлиқни сақлаш туризми-туристик фаолиятнинг барча йўналишларини ўз ичига олади. Тиббий туризм рекреацион ва реабилитация тадбирларини ва аста-секин туристик фаолиятнинг ўзига хос турига айланиб борадиган ва соф клиник таркибий қисми билан ажralиб турадиган тиббиёт туризмининг ўзини қамраб олади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. MTI Methodology. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://www.medicaltourism.com/mti/methodology> (дата обращения 15.01.2022).
2. Санкт-Петербург - медицинский тревел хаб. [Электронный ресурс]. Режим доступа: [https://www.gov.spb.ru/gov/otrasl/c\\_tourism/news/190860](https://www.gov.spb.ru/gov/otrasl/c_tourism/news/190860) (дата обращения 12.01.2022).
3. Безопасность туризма : учебник / А.Г. Бобкова, С.А. Кудреватых, Е.Л. Писаревский ; под общ. ред. д-ра юрид. наук. Е.Л. Писаревского. — М. : Федеральное агентство по туризму, 2014. — С.98.
4. Алмаз Шарман. Медицинский туризм: мифы и реальность, перспективы для Казахстана. 16.07.12 [Электронный ресурс] . Режим доступа: <http://www.zdrav.kz/en/node/20>. (Дата обращения 30.11.2015)
5. Щекин Г.Ю. Концептуализация феномена медицинского туризма в соиологии медицины. Авт.на соис. уч.ст.д.с.н. Волгоград, 2013.

1 Алмаз Шарман. Медицинский туризм: мифы и реальность, перспективы для Казахстана. 16.07.12 [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.zdrav.kz/en/node/20>. (Дата обращения 30.11.2015)

2 Щекин Г.Ю. Концептуализация феномена медицинского туризма в соиологии медицины. Авт.на соис. уч.ст.д.с.н. Волгоград, 2013.

# **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 9-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.07.2023

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000